JAHON AYVONIDA YULDUZDEK PORLAB TURGAN ADABIYOT

Sevinch Akramova
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali
2-bosqich talabasi
sevincha46@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon adabiyoti va o`zbek adabiyoti vakillarining adabi - yot haqida qarashlari aks etadi va adabiyotning asl mohiyati haqida gap boradi.

**Kalit so`zlar:** Adabiyotning o`ziga xosligi, “Garov” hikoyasi, tiriklik va o`lim, Abdulla Qahhor, tanqid, buyuklik yo`li, haqiqatlar.

"...Adabiyot zamin ustida iz qoldirmaydi, balki vaqtning bilqillama qumloqlari ustida iz qoldiradi va qochoqni shu izlarga qarab topmog‘i kerak bo‘lgan izquvarga rahmlarim keladi. Shundoq bo‘lgandan keyin, mening nazarimda adabiyotga berilgan har qanday ta’rif ham to‘laqonli bo‘lmaydi. Biroq, men yaqinda o‘zimga tanish bir yozuvchi bilan suhbatlashib qoldim. U eski pyesalarni o‘rganar ekan, nima sababdan adabiy asarlar o‘zlarining umrboqiyliklarini saqlab qoladilar, degan masalaga ham qiziqibdi. U buning bosh sababi xarakterlarning hayotiyligida degan xulosaga kelibdi. O‘ylaymanki, agar pyesalar va romanlar to‘g‘risida gap boradigan bo‘lsa, mening tanishim haqiqatdan unchalik uzoq emas. To‘g‘ri, yana shunday bir narsani ham topish kerakki, u poeziyaga ham to‘g‘ri kelsin. Aftidan, bunday deyish mumkinga o‘xshaydi - katta harf bilan boshlanadigan Adabiyot bo‘lmoq uchun asar o‘zida chinakam individuallik muxriga ega bo‘lmog‘i kerak. Mohiyat e`tibori bilan bunday asar o‘zidan avval yaratilgan bironta asarga o‘xshamasligi lozim..."[1] O`zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo`lmish, buyuk yozuvchi va tanqidchi olim Ozod Sharafiddinov o`zining takrorlanmas adabiyot uchun xizmatlari bilan barcha yozuvchi va tanqidchilardan farqlanib turadi. Adibning hayot varaqlarini bilgan muxlis, albatta, yozuvchining insonga xos bo`lmagan xarakterini sezadi. Bu qanday xarakter? Tanqidchi nafaqat boshqa adiblarni va ularning asarlaridagi kamchilik va yutuqlarini ko`ra olgan, balki o`zini ham tanqid qila olgan buyuk shaxs sifatida insonni lol qoldirgan. Mana shunday bir shaxs buyuk adabiyot muxlislari uchun ham tuganmas bir meros qoldirgan. Adib o‘zining ham adabiyot haqidagi qarashlari, ham adabiyot haqidagi dunyo olimlarining fikrlarini o`rganib, ularni tarjima qilib biz kabi adabiyot shinavandalariga taqdim etadi. Bularga misol qilib, adibning “Jahon adiblari adabiyot haqida” kitobini olsak, yuqorida kirish sifatida qo‘llagan parcham ham ushbu kitobdandir. Yuqorida aynan, buyuk ingliz yozuvchisi, an`anaviy realizm maktabining davomchisi Jon Golsuorsining fikrlaridir. Aynan, bu fikrlar adabiyot uchun katta bir qarashdir. Adabiyot aslida bir mo`jiza, u insoniyat bilan birga tug`ilgan va insoniyat borki u yashaydi.

"...Bundan buyon men bu dunyoning jumla noz-ne’matlaridan nafratlanaman. Ularning hammasi o‘tkinchi, haqir, turgan-bitgani sarob ekan. Sizlar, ya’ni o‘zini ilm-u hikmatda, dunyoni anglab yetishda barkamollikka erishgandek chog‘layotgan mutakabbir bandalar qanchalik kibr-u havoga berilmang, ajal sizlarni yerto‘la va yerostidagi sichqon-u kalamushlarga qo‘shib, yer yuzidan supurib tashlaydi, ortingizda qolayotgan avlod-u ajdodlaringiz yaratgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar kurrayi zamin bilan birgalikda kunpayakun bo‘ladi... Boylik, hasad, hirs-u havas barchangizning ko‘zingizni ko‘r, shuuringizni shafaq qilib qo‘ygan. Sizlar yolg‘onni haqiqat, hamoqatni nafosat deyishga o‘rganib qolgansiz. Mabodo falakning gardishi bilan

[1] Ozod Sharafiddinov.Jahon adiblari adabiyot haqida.-Toshkent.”Ma`naviyat” nashriyoti.2010. –B:70.

daraxtlarda, olma, po‘rtaxol va nok o‘rniga qurbaqa, kaltakesak va ilonlar osilib tursa; atirgullar firdavs bog‘larining iforlarini emas, balki badbo‘y terisi taratib turishidan qanchalik irganib-jirkanganingiz kabi, kamina ham Arshi a’loni yolg‘onchi dunyoning hoy-u havaslariga almashtirib o‘tirganingizdan bag‘oyat taxayyuldaman. Endi ichingizda kaminani yo‘q deb hisoblayveringlar!!!..."[2] Albatta, adabiyot - butun koinot, butun borliq. Adabiyot olamiga qadam qo‘ygan inson o‘zligini anglaydi, hayotga buyuk nazar ila qaray oladi. Fransuz faylasufi Gelvetsiy aytganidek, "She’r yo yuksak cho‘qqilarda, yoki g‘orlarda yaratiladi". Darhaqiqat, buyuk tinglovchilar, ya’ni adabiyotsevarlar yillar davomida adabiyot olamida shohlarni ham, gadolarni ham ko‘rishdi. Angladikki, adabiyot shunchaki borliq. Tiriklik va o‘lim!!!

Butun dunyo, jamiki olam uchun ayonki, biz hozirgi kunda ya’ni XXI asrda qo`pol qilib aytganda, razolatda yashamoqdamiz. Bu razolat botqog`ida juda ko`p insonlar nobud bo`lishmoqda. Taassuflar bo`lsinki, bu jaholatdan o`zimiz ham chetda emasmiz. Yuqorida keltirilgan “Garov” hikoyasidan olingan parchada, aynan, shu holatga duch kelamiz. Hozirda odamlar, bizning yaratuvchimiz bo`lgan “ ALLOH” dan ham qo`rqmaydigan darajaga kelib qolishgan. Nega? Nima uchun? Nima sababdan? Qanday bu holatga keldik? Bu savollar ba`zida meni shuurimni shu qadar egallab oladi va bo`g`zimga nimadir tiqiladi. Qilgan gunohlarim, xatolarim ko`z o`ngimdan o`tib meni qandaydir bir bo`shliqqa olib kiradi. Men shu onda xuddi, yangi tug`ilgan chaqaloq kabi xayolimdagi bo`shliqlar bilan qolaman. Bu bo`shliq meni shu qadar o`z domiga tortadi, tortaveradi… Shu onda yoshligimdan bobom aytgan bir gap bilan yana o`zimga kelaman. Bu gap: “ Nabiraginam, qachonki sen hayotda yashashdan toliqsang, kitob varaqla, adabiyotga murojaat qil.” Adabiyot shunchaki, ulkan bir olam. Biz insonlar u olam ichida yashaymiz, faqatgina buni hamma ham his qila olmaydi. Aql hajga borish uchun tuya topguncha, muhabbat Ka’bani ikki marta aylanib chiqadi.[3]

Aynan shu joyda o‘zimizga xulosa chiqarsak, tavakkalchi inson hayotda doimo oldinda yuradi. Grem Grin shunday deydiki, "Yozuvchi uchun muvaffaqiyat har doim vaqtinchalik, har doim muvaffaqiyatsizlik". Darhaqiqat, yuqorida Allohga tavakkal qilib, adabiyot haqida so`z yuritdim. Biz bilamizki, adabiyot biz uchun yagona jaholatga qarshi kuchdir. Shunchaki bu kuchni Abdulla Qahhor aytganidek: “ adabiyot atomdan kuchli, uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak”.

Takidlash joizki, har bir yozuvchining o`ziga xos qarashlari mavjud. Dunyoda insonlar ko`p va ularning fikrlari ham turlicha. Shunday ekan, adabiyotda ham turli xil qarashlar mavjud. Ba’zida bu qarashlar turli xil bahslarga ham sababchi bo`ladi. Lekin doimo biz, ya`ni buyuk tinglovchilar o`zimizga mos bo`lgan o`rtaliqda bo`lishimiz lozim. Abdulla Qahhor ta`kidlaganidek: “Adabiyotda yolg`onning katta-kichigi yo`q. Hammasi ham baravar zarardir.”. Biz esa bu yolg`onning tubiga cho`kmasligimiz va asl adabiyot namunalarini qadrlashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.P.Chexov “Garov” hikoyasi.
2. Ozod Sharafiddinov. Jahon adiblari adabiyot haqida. -Toshkent.”Ma`naviyat” nashriyoti. 2010.
3. www.hikmatlar.uz.

[2] A.P.Chexov. Garov. Hikoya. 11-sinf adabiyot darsligi.
[3] www.hikmatlar.uz, Jaloliddin Rumiy.